

O‘ZBEKISTON RAQAMLI IQTISODIYOTINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASINING O‘RNI

Isakov Oybek Jamoldinovich

Namangan davlat texnologiya universiteti
“Marketing” kafedrası assistenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda AKT sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar soni, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi, mobil internet abonentlari hamda sohada band aholi sonining dinamikasi rasmiy statistik ma’lumotlar asosida baholandi. Natijalar AKT sohasining kengayishi raqamli xizmatlar bozorini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilganini ko‘rsatdi. Tadqiqot yakunida raqamli infratuzilmani rivojlantirish va hududlarda AKT salohiyatini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot, raqamli infratuzilma, mobil internet, AKT korxonalari, elektron xizmatlar, bandlik, raqamli transformatsiya.

Аннотация

В статье была проанализирована роль сферы информационно-коммуникационных технологий в формировании цифровой экономики Узбекистана. На основе официальных статистических данных были исследованы динамика количества предприятий ИКТ, объем услуг связи и информатизации, число пользователей мобильного интернета и занятость в отрасли. Полученные результаты показали, что расширение сферы ИКТ способствовало развитию цифровых услуг, стимулированию инновационной деятельности, созданию новых рабочих мест и повышению экономической эффективности. По итогам исследования были сформированы научно-практические выводы по дальнейшему развитию цифровой инфраструктуры и укреплению потенциала информационно-коммуникационных технологий в регионах страны.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, цифровая экономика, цифровая инфраструктура, мобильный интернет, предприятия ИКТ, электронные услуги, занятость, цифровая трансформация.

Abstract

This article examined the role of the information and communication technology (ICT) sector in the development of Uzbekistan’s digital economy. Official statistical data were used to analyze the dynamics of ICT enterprises, communication and information service output, mobile Internet subscribers, and employment in the ICT sector. The findings demonstrated that the expansion of ICT contributed to the growth of digital services, the promotion of innovation, the creation of new employment opportunities, and the improvement of economic efficiency. The study also established scientific and practical conclusions for strengthening digital infrastructure and

enhancing the capacity of the ICT sector to support balanced regional digital transformation and sustainable economic development.

Keywords: information and communication technologies, digital economy, digital infrastructure, mobile Internet, ICT enterprises, electronic services, employment, digital transformation.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, boshqaruv, moliya, ta'lim va kommunikatsiya jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiyotning alohida tarmog'i sifatida emas, balki barcha sohalarning raqamli transformatsiyasini ta'minlovchi asosiy infratuzilmaviy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi, avvalo, internet tarmog'ining kengayishi, mobil aloqa xizmatlarining rivojlanishi, elektron xizmatlar ko'lamining ortishi, dasturiy mahsulotlar bozori va AKT sohasida band aholining ko'payishi bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston sharoitida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi mamlakatda raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat, raqamli infratuzilma va raqamli texnologiyalar milliy bozorini rivojlantirishning muhim huquqiy-asosiy hujjati hisoblanadi [1]. Mazkur strategiyada iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va hududlarni raqamli transformatsiya qilish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, axborot tizimlarini joriy etish, raqamli ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash hamda zamonaviy AKT infratuzilmasini kengaytirish kabi vazifalar belgilangan.

"Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasining asosiy mazmuni shundan iboratki, raqamli texnologiyalarni faqat texnik vosita sifatida emas, balki iqtisodiy o'sish, boshqaruv samaradorligi va aholiga xizmat ko'rsatish sifatini oshiruvchi strategik resurs sifatida rivojlantirish nazarda tutiladi. Strategiya doirasida hududlar va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish bo'yicha alohida dasturlar tasdiqlangani, shuningdek, raqamli infratuzilmani kengaytirish va elektron xizmatlarni ommalashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning belgilanishi AKT sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini yanada oshirmoqda [1]. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi mamlakatda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning tayanch omillaridan biri sifatida baholanishi lozim.

ADABIYOTLAR SHARHI

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining raqamli iqtisodiyotni shakllantirishdagi o'rni ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xalqaro tadqiqotlarda AKT sohasi nafaqat aloqa va axborot almashinuvi vositasi, balki iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish, mehnat unumdorligi hamda xizmatlar bozorining yangi shakllarini vujudga keltiruvchi muhim infratuzilmaviy omil sifatida talqin etiladi. Jumladan, M.Castells axborotlashgan jamiyat nazariyasini rivojlantirib, zamonaviy iqtisodiyotda axborot oqimlari, raqamli tarmoqlar va kommunikatsiya tizimlari ishlab

chiqarish hamda boshqaruv jarayonlarining asosiy tarkibiy qismiga aylanishini asoslab berdi [2]. D.Tapscott esa raqamli iqtisodiyot tushunchasini chuqur tahlil qilib, internet texnologiyalari, elektron platformalar va tarmoqli hamkorlik biznes jarayonlarini tubdan o'zgartirishini ko'rsatib berdi [3].

Raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslarini tadqiq etishda N.Negroponte, E.Brynjolfsson va A.McAfee kabi olimlarning ishlari ham muhim ahamiyatga ega. N.Negroponte raqamli texnologiyalar axborotni yaratish, uzatish va qayta ishlash jarayonlarini tezlashtirish orqali jamiyat taraqqiyotida yangi bosqichni yuzaga keltirishini ta'kidlagan [4]. E.Brynjolfsson va A.McAfee esa raqamli texnologiyalar mehnat bozori, ishlab chiqarish samaradorligi, intellektual tizimlar va innovatsion biznes modellarning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab bergan [5]. Mazkur yondashuvlar AKT sohasining raqamli iqtisodiyot uchun faqat texnik vosita emas, balki iqtisodiy transformatsiyani harakatga keltiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimini raqamli transformatsiya qilish, elektron hukumatni rivojlantirish, raqamli infratuzilmani kengaytirish hamda AKT sohasida malakali kadrlar tayyorlash vazifalari belgilangan [1]. Ushbu strategik hujjat mamlakatda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda AKT sohasining institutsional, texnologik va iqtisodiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan ham raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va elektron xizmatlar bozorining rivojlanishiga oid ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, S.S.G'ulomov va uning ilmiy maktabi vakillari axborot tizimlari, elektron biznes va raqamli iqtisodiyotning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganib, AKTning korxonalar boshqaruvi va iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini tadqiq etgan [8]. B.Yu.Xodiyev, A.N.Samadov va boshqa iqtisodchi olimlar esa raqamli texnologiyalarning xizmatlar sohasi, tadbirkorlik faoliyati, elektron tijorat va innovatsion rivojlanishdagi ahamiyatini yoritgan [9]. T.Maxmudov raqamli iqtisodiyot sharoitida Sanoat 4.0 rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini tadqiq etib, zamonaviy sanoat taraqqiyotida avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalar, intellektual tizimlar va innovatsion ishlab chiqarish modellarining ahamiyatini asoslab bergan [10]. Ushbu yondashuv AKT sohasi nafaqat xizmatlar bozori yoki elektron kommunikatsiya tizimi sifatida, balki sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning muhim texnologik asosi ekanligini ko'rsatadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi raqamli iqtisodiyotning shakllanishida uch asosiy yo'nalishda muhim rol o'ynaydi: birinchidan, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur raqamli infratuzilmani yaratadi; ikkinchidan, mustaqil xizmatlar sohasi sifatida qo'shimcha qiymat va bandlikni ta'minlaydi; uchinchidan, davlat, biznes va aholi o'rtasida tezkor

hamda samarali raqamli kommunikatsiya muhitini shakllantiradi. Ushbu maqolaning ilmiy ahamiyati ham aynan AKT sohasining O'zbekiston raqamli iqtisodiyotini shakllantirishdagi o'rnini mavjud statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish va hududiy xususiyatlarini aniqlash bilan belgilanadi.

METADOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining O'zbekiston raqamli iqtisodiyotini shakllantirishdagi o'rnini baholash uchun tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik tahlil, guruhlash va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, vakolatli davlat organlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Tahlil jarayonida AKT korxonalari soni, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi, mobil internet abonentlari soni va sohada band aholining hududlar kesimidagi ko'rsatkichlari o'rganildi. Olingan natijalar o'zaro taqqoslanib, AKT sohasining raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri baholandi. Metodologik yondashuv raqamli infratuzilmaning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, hududiy xususiyatlarni baholash hamda ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalarni shakllantirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar sonining o'sishi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chunki AKT korxonalari raqamli infratuzilmani kengaytirish, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish, internet xizmatlarini rivojlantirish, ma'lumotlarni qayta ishlash va iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli yechimlarni joriy etishda bevosita ishtirok etadi. Shu sababli mazkur sohadagi korxonalar sonining yillar bo'yicha o'zgarishi raqamli iqtisodiyotning amaliy rivojlanish darajasini baholash imkonini beradi.

O'zbekistonda axborot va aloqa sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 2020-yilda 7901 tani tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilga kelib bu ko'rsatkich 11901 taga yetgan. Ya'ni tahlil qilinayotgan davrda ushbu sohadagi korxonalar soni 4000 taga yoki 50,6 foizga oshgan. Bu esa mamlakatda raqamli xizmatlar bozori kengayib borayotganini, AKTga asoslangan tadbirkorlik subyektlari ko'payayotganini hamda raqamli iqtisodiyot uchun institutsional baza mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar sonining keskin o'sishi e'tiborga molikdir. Ushbu yo'nalishda korxonalar soni 2020-yildagi 710 tadan 2026-yilda 2010 taga yetgan. Natijada mazkur faoliyat turi bo'yicha o'sish 183,1 foizni tashkil qilgan. Bu holat O'zbekistonda dasturiy mahsulotlarga, raqamli platformalarga, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlariga va biznes jarayonlarini raqamlashtirishga bo'lgan talab ortib borayotganini anglatadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida aynan dasturlash sohasi elektron hukumat, elektron tijorat, raqamli bank xizmatlari, Sanoat 4.0 va boshqa zamonaviy yo'nalishlarning rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy tarmoq hisoblanadi.

1-jadval
O'zbekistonda axborot kommunikatsiya sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar soni¹


№	Faoliyat sohasi	Yillar						
		2020	2021	2022	2023	2024	2025	2026
1	Web-portallar	70	97	109	128	137	224	266
2	Simli aloqa xizmatlarini taqdim etish	457	463	362	386	296	253	240
3	Simsiz aloqa xizmatlarini taqdim etish	1127	1382	1457	1588	1223	939	1090
4	Kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat	710	896	1121	1618	1602	1533	2010
5	Kompyuter texnologiyalari sohasidagi maslahat xizmatlari	309	387	461	536	583	558	741
6	Kompyuter uskunalarini boshqarish bo'yicha faoliyat	149	198	243	290	269	245	272
7	Axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlari sohasidagi boshqa faoliyat turlari	1217	1433	1596	1993	1694	1658	2074
8	Ma'lumotlarni joylashtirish va ishlav berish bo'yicha xizmatlar	396	510	628	704	604	608	691
9	Axborot agentliklari faoliyati	188	175	171	197	188	164	173
10	Kompyuter o'yinlarini chiqarish	109	136	130	156	171	158	236
11	Boshqa dasturiy ta'minotlarni chiqarish	248	315	352	425	494	532	878
12	Radioeshittirish	87	88	66	68	35	17	17
13	Axborot va aloqa	7901	9517	10587	12204	10551	9777	11901

Web-portallar faoliyatidagi o'sish ham yuqori sur'atlarda kechganini ko'rish mumkin. Jumladan, ushbu yo'nalishda korxonalar soni 2020-yilda 70 tani tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilda 266 taga yetgan. Bu 2020-yilga nisbatan 280 foizlik o'sishni bildiradi. Web-portallar sonining ortishi internet orqali xizmat ko'rsatish, elektron savdo, onlayn axborot almashinuvi, raqamli reklama va masofaviy xizmatlar bozorining kengayib borayotganidan dalolat beradi. Bunday o'sish "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan elektron xizmatlarni rivojlantirish va raqamli infratuzilmani kengaytirish vazifalari bilan bevosita bog'liqdir.

Boshqa dasturiy ta'minotlarni chiqarish faoliyatida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Mazkur yo'nalishda korxonalar soni 2020-yilda 248 tani tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilga kelib 878 taga yetgan. Bu davr mobaynida o'sish 630 taga yoki 254 foizga teng bo'lgan. Kompyuter texnologiyalari sohasidagi maslahat xizmatlari yo'nalishida ham sezilarli o'sish mavjud. 2020-yilda ushbu faoliyat turi bo'yicha 309 ta korxona faoliyat yuritgan bo'lsa, 2026-yilda ularning soni 741 taga yetgan. Bu esa 139,8 foiz o'sishni anglatadi. Shuningdek, axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlari sohasidagi boshqa faoliyat turlari bo'yicha ham korxonalar soni 2020-yildagi 1217 tadan 2026-yilda 2074 taga yetgan. Bu yo'nalish umumiy AKT tizimida eng katta

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari <https://stat.uz>

ulushga ega faoliyat turlaridan biri bo'lib, 2026-yilda axborot va aloqa sohasidagi jami korxonalar sonining 17,4 foiziga teng bo'lgan. Kompyuter dasturlashtirish sohasi esa 2010 ta korxona bilan jami ko'rsatkichning 16,9 foizini tashkil etgan. Simsiz aloqa xizmatlarini taqdim etuvchi korxonalar soni esa tahlil davrida nisbatan o'zgaruvchan dinamikaga ega bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich 2020-yilda 1127 tani tashkil etgan, 2023-yilda 1588 tagacha oshgan, biroq 2024-2025-yillarda pasayib, 2026-yilda 1090 taga yetgan.



1-rasm. O'zbekiston ko'rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi¹


O'zbekistonda ko'rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 2015-2025-yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2015-yilda ushbu xizmatlar hajmi 5181,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 61245,7 mlrd so'mga yetgan. Bu esa tahlil qilinayotgan davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi qariyb 11,8 barobarga oshganini ko'rsatadi. 2020-yildan keyingi davrda o'sish sur'atlarining tezlashgani kuzatiladi. 2020-yilda xizmatlar hajmi 13852,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 17755,1 mlrd so'mga, 2022-yilda 24508,4 mlrd so'mga, 2023-yilda esa 39064,4 mlrd so'mga yetgan. 2024-yilda bu ko'rsatkich 56812,1 mlrd so'mni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. 2025-yilda esa xizmatlar hajmi 61245,7 mlrd so'mga yetib, o'sish davom etgan.

Mazkur holat O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga bo'lgan talab ortib borayotganini ko'rsatadi. Internet xizmatlari, mobil aloqa, elektron davlat xizmatlari, raqamli platformalar, dasturiy mahsulotlar va masofaviy xizmatlarning kengayishi mazkur soha hajmining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiyot tarmoqlariga AKT

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari <https://stat.uz>

yechimlarini joriy etish bo'yicha belgilangan vazifalar aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bozorining kengayishiga xizmat qilmoqda.

Mobil internet abonentlari sonining muntazam ortib borishi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy-texnologik bazasi kengayib borayotganini anglatadi. Chunki mobil internet aholining elektron davlat xizmatlari, elektron tijorat, onlayn ta'lim, masofaviy bank xizmatlari, raqamli to'lovlar, ijtimoiy tarmoqlar va turli elektron platformalardan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Shu sababli mobil internet qamrovining kengayishi raqamli xizmatlar bozorining rivojlanishi va aholining raqamli faolligi ortishida muhim omil hisoblanadi.



2-rasm. Internet tarmog'iga mobil aloqa orqali ulangan abonentlar soni¹

O'zbekistonda internet tarmog'iga mobil aloqa orqali ulangan abonentlar soni 2015-2025-yillar davomida muntazam o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2015-yilda mobil internet abonentlari soni 7793,7 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 30145,2 ming nafarga yetgan. Bu esa tahlil qilinayotgan davrda mobil internetdan foydalanuvchilar soni qariyb 3,9 barobarga oshganini ko'rsatadi. 2015-2020-yillar oralig'ida mobil internet abonentlari soni bosqichma-bosqich o'sib, 7793,7 ming nafardan 17946,5 ming nafarga yetgan. Ayniqsa, 2020-yildan keyingi davrda ushbu ko'rsatkichning o'sish sur'ati yanada tezlashgan. 2021-yilda mobil internet abonentlari soni 20991,8 ming nafarni, 2022-yilda 24017,6 ming nafarni, 2023-yilda esa 27087,3 ming nafarni tashkil etgan. 2024-yilda bu ko'rsatkich 28592,7 ming nafarga, 2025-yilda esa 30145,2 ming nafarga yetgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida band aholi soni raqamli iqtisodiyotning shakllanish darajasini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Chunki AKT sohasida mehnat qilayotgan mutaxassislar dasturiy mahsulotlar yaratish, internet xizmatlarini rivojlantirish, elektron platformalarni qo'llab-quvvatlash, raqamli

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari <https://stat.uz>

infratuzilmani kengaytirish va iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda bevosita ishtirok etadi.

2-jadval

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarda band aholi soni¹

№	Hududlar	Yillar					
		2020	2021	2022	2023	2024	2025
1	O'zbekiston Respublikasi	50157	53782	60462	71627	83051	85052
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1302	1222	1124	1394	1564	1625
3	Andijon viloyati	1702	1441	1708	1582	1847	1938
4	Buxoro viloyati	1770	1801	1979	1826	1944	2154
5	Jizzax viloyati	1113	832	597	672	781	892
6	Qashqadaryo viloyati	1052	1243	1248	1407	1660	1792
7	Navoiy viloyati	1328	1247	1040	1031	1062	1234
8	Namangan viloyati	1491	1538	1511	1458	1540	1756
9	Samarqand viloyati	1871	1973	1973	2538	3180	3301
10	Surxondaryo viloyati	1031	1007	1073	1067	1222	1305
11	Sirdaryo viloyati	776	666	718	934	1034	1152
12	Toshkent viloyati	2713	2727	2793	3048	3269	3358
13	Farg'ona viloyati	2661	2212	2430	2605	2837	2956
14	Xorazm viloyati	1205	1186	1304	1469	1612	1758
15	Toshkent shahri	30142	34687	40964	50596	59499	62547

O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida band aholi soni 2020-yilda 50157 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 85052 nafarga yetgan. Bu davrda sohada bandlar soni 34895 nafarga yoki 69,6 foizga oshgan. Mazkur o'sish mamlakatda AKT xizmatlari bozori kengayayotgani, raqamli texnologiyalarga talab ortayotgani hamda ushbu sohada yangi ish o'rinlari yaratilayotganini ko'rsatadi. Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahriga to'g'ri keladi. 2020-yilda poytaxtda AKT sohasida 30142 nafar aholi band bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 62547 nafarga yetgan. Demak, 2025-yilda respublika bo'yicha AKT sohasida band aholining asosiy qismi Toshkent shahrida jamlangan. Bu holat poytaxtda IT kompaniyalar, aloqa operatorlari, dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchilar, axborot xizmatlari va raqamli platformalar faoliyati nisbatan yuqori darajada rivojlangani bilan izohlanadi. Viloyatlar orasida Toshkent viloyati, Samarqand, Farg'ona, Buxoro va Andijon viloyatlarida AKT sohasida bandlik nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega. Jumladan, 2025-yilda Toshkent viloyatida 3358 nafar, Samarqand viloyatida 3301 nafar, Farg'ona viloyatida 2956 nafar, Buxoro viloyatida 2154 nafar va Andijon viloyatida 1938 nafar aholi ushbu sohada band bo'lgan. Bu esa yirik iqtisodiy va demografik salohiyatga ega hududlarda raqamli xizmatlar va AKT infratuzilmasiga talab yuqoriligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda AKT sohasida bandlik darajasi pastligicha qolmoqda. Masalan, 2025-yilda Jizzax viloyatida 892 nafar, Sirdaryo viloyatida 1152 nafar va Navoiy viloyatida 1234 nafar aholi ushbu sohada

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistikasi qo'mitasi ma'lumotlari <https://stat.uz>

band bo'lgan. Bu esa hududlar o'rtasida AKT sohasining rivojlanish darajasi bir xil emasligini, raqamli infratuzilma va malakali kadrlar taqsimotida tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning faqat texnik infratuzilmasi emas, balki yangi iqtisodiy munosabatlar, raqamli xizmatlar bozori, innovatsion bandlik va hududiy raqamli rivojlanishni ta'minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. AKT sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar sonining ortishi, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining kengayishi, mobil internet abonentlari sonining muntazam oshib borishi hamda ushbu sohada band aholi sonining ko'payishi mamlakatda raqamli transformatsiya jarayonlari real iqtisodiy mazmun kasb etayotganini tasdiqlaydi. Shu jihatdan, AKT sohasining izchil rivojlanishi O'zbekiston iqtisodiyotida elektron xizmatlar, raqamli tadbirkorlik, masofaviy mehnat, elektron tijorat, raqamli boshqaruv va innovatsion ishlab chiqarish modellarining kengayishiga bevosita xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasining O'zbekiston raqamli iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirishdagi strategik ahamiyatini tasdiqladi. Tahlillar AKT sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar sonining ortishi, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining barqaror o'sishi, mobil internet foydalanuvchilari sonining ko'payishi hamda sohada band aholining kengayishi raqamli transformatsiya jarayonlarining izchil rivojlanayotganini ko'rsatdi. Ayniqsa, kompyuter dasturlashtirish, dasturiy ta'minot ishlab chiqish, veb-portallar va axborot texnologiyalari xizmatlari yo'nalishlaridagi o'sish raqamli xizmatlar bozorining kengayishi va innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shganini tasdiqladi.

Hududlar kesimidagi tahlillar AKT sohasining rivojlanish darajasi barcha hududlarda bir xil emasligini ko'rsatgan bo'lsa-da, aksariyat hududlarda ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatildi. Bu natijalar raqamli infratuzilmani kengaytirish, malakali kadrlar salohiyatini oshirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etish raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillar ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari AKT sohasini rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va zamonaviy raqamli xizmatlar bozorini kengaytirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Hududlarda raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari va zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlari qamrovini kengaytirish maqsadga muvofiq.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalari va IT ta'lim markazlarida amaliy ko'nikmalarga yo'naltirilgan dasturlarni kengaytirish tavsiya etiladi.

3. Hududlarda faoliyat yuritayotgan AKT korxonalarini qo'llab-quvvatlash va yangi innovatsion korxonalarni tashkil etishni rag'batlantirish raqamli xizmatlar bozorining rivojlanishiga hamda yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qiladi.

4. Davlat va xususiy sektor hamkorligida raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga keng joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish imkonini beradi.

5. Elektron xizmatlar, elektron tijorat, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahliliga asoslangan raqamli yechimlarni keng qo'llash iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

6. AKT sohasining rivojlanishini muntazam monitoring qilish va hududlar kesimida statistik tahlillarni kengaytirish raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalarini aniq baholash hamda ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Mazkur xulosa va takliflar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining salohiyatidan yanada samarali foydalanish, raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish va O'zbekiston raqamli iqtisodiyotining barqaror hamda raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "“Raqamli O'zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. - URL: <https://lex.uz/ru/docs/5030957>

2. Castells M. The Rise of the Network Society. - Oxford: Blackwell Publishers, 1996. - 556 p.

3. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. - New York: McGraw-Hill, 1995. - 342 p.

4. Negroponte N. Being Digital. - New York: Alfred A. Knopf, 1995. - 243 p.

5. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. - New York: W. W. Norton & Company, 2014. - 306 p.

6. International Telecommunication Union. Measuring Digital Development: Facts and Figures. - Geneva: ITU.

7. OECD. Digital Economy Outlook. - Paris: OECD Publishing.

8. G'ulomov S. S. va boshq. Raqamli iqtisodiyot va axborot tizimlari rivojlanishining nazariy asoslari. - Toshkent.

9. Xodiyev B. Yu., Samadov A. N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion rivojlanish masalalari. - Toshkent.

10. Olimjonovich M. T. Raqamli iqtisodiyotda Sanoat 4.0 ni rivojlanishining o'ziga xos jihatlari // Science and Innovation. - 2024. - Vol. 3, Special Issue 24. - P. 1061-1063.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:
Ingliz tili muharriri:
Rus tili muharriri:
Musahhih:
Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Karimova Shirin Zoxid qizi
Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, iyun, 6-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**